



## **РОЛЬ КНИГ В УСТРАНЕНИИ ДЕФИЦИТОВ РЕЧИ У ДЕТЕЙ**

Донохон Уралова Батыр кызы,

Студентка 4 курса факультета издательского дела Ташкентского  
государственного университета искусств и наук

**Аннотация.** В статье анализируются нарушения речи у детей школьного возраста, их виды и причины. В статье рассматриваются основные нарушения речи, такие как проблемы произношения, ограниченный словарный запас, заикание и нарушение логического общения. Также рассматриваются физиологические, социально-психологические и современные технологические аспекты влияния на нарушения речи. В качестве способов преодоления проблем рекомендуются такие методы, как ранняя диагностика, создание надлежащей речевой среды, поощрение чтения, поощрение устной речи, ограничение использования электронных устройств и развитие речи посредством игр. В статье подчеркивается важность совместных усилий семьи, школы и специалистов в решении проблем речевых нарушений.

## **BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILKLARNI BARTARAF ETISHDA KITOBNING O'RNI**

**Donoxon O'ralova Botir qizi,**

ToshDO'TAU Noshirlik ishi fakulteti

4-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan nutqiy kamchiliklar, ularning turlari va kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Maqolada talaffuz muammolari, lug'at boyligining chegaralanganligi, duduqlanish va mantiqiy bog'lanishning buzilishi kabi asosiy nutqiy nuqsonlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, nutqiy kamchiliklarning fiziologik, ijtimoiy-psixologik, zamonaviy texnologiyalar ta'siri yoritilgan. Muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida erta tashxis qo'yish, to'g'ri nutq muhitini yaratish, kitob o'qishga qiziqtirish, og'zaki nutq faoliyatini rag'batlantirish, electron qurilmalardan foydalanishni cheklash va o'yin faoliyati orqali nutqni rivojlantirish kabi usullar tavsiya etilgan. Maqolada nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda oila, maktab va mutaxassislarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari muhimligi ta'kidlangan.



Bugungi kunda jamiyatda kitobga e'tibor juda muhim masalaga aylandi. Kitob mutolaasi insonning nafaqat dunyoqarashini kengaytiradi, balki nutq madaniyatini, so'z boyligini va fikrlash qobiliyatlarini ham yanada takomillashtiradi. Ayniqsa, yoshlik davrida kitob bilan do'st bo'lish nutqning to'g'ri shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalarda nutq shakllanish davrida kitob mutolasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitoblari orqali kichkintoylar so'z boyligini oshiradi, to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kitob o'qigan sari inson lug'aviy so'z boyligi kengayib boradi. Har bir kitob yangi so'zlar, iboralar va tushunchalar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bu esa nutqning boy va ifodali bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi va o'rta maktab yoshidagi bolalarda nutq nuqsonlari ko'plab uchramoqda. Buning sabablari turlicha. Masalan, bolaning tili chiqmasdan unga turli ko'rinishdagi elektron qurilmalarni berib qo'yishimiz hamda unda bola ko'rayotgan narsalariga e'tiborsiz qoldirishimiz. Nutqi shakllanayotgan davrga bolaga keraklicha e'tibor qilmasligimiz, uning nutqi chiqishiga amaliy yordam bermasligimiz, uni rag'batlantirmasligimiz, uning tilida bolalarcha suhbatlashmasligimiz va boshqa sabablar.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning nutqidagi nuqsonlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bola o'z tilini yo'qotganligi, unga o'zi tushunmaydigan tilda har xil mavzudagi videoroliklar, rivojlantiruvchi materiallar va mobil o'yinlar qo'yib beriganligimiz sababli bola qaysi tilda gapirishni tanlay olmay fikrlarida chalkashliklar kelib chiqib, uning ongida psixologik buzilishlar kuzatiladi. Shu sababli ayrim bolalar o'z fikrlarini ifoda eta olmasdan qiynaladilar. Boshida fikrlarni tushuntira olmasdan bola asabiylashadi sekin - sekin imo-ishora orqali tushuntirib o'ziga qulay yo'lni tanlab oladi. Oiladagilar esa uning nutqidagi kamchlikga e'tibor qaratmasdan quyadilar. Shu sababli, unda tashqi nutq faoliyatida nuqsonlar paydo bo'la boshladi. Bular duduqlanish, autism, xavflarni to'g'ri tallafuz qilmaslik v.k. Bu muammolarni vaqtida tuzatmasdan e'tiborsiz qoldirsa, muammo yanada jiddiylashadi. Bola maktabgacha yoki maktab yoshiga yetganda nutqidagi kamchiliklar tufayli jamiyatda o'z ijtimoiy o'rni mavqeini topishga qiynaladi. Bola nutqidagi muammolarni yechishning o'z mutaxassislari, turli usul va metodlari bor. Bu usullaridan biri kitob mutolaasidir. Bunda turli mavzudagi, turli janrdagi kitoblarni o'qish orqali inson nutq foliyatini so'z boyligini hamda turli sohalarga oid so'z va atamalarni o'zlashtiradi. Ularni muntazam o'qib borish nutqimizni yanada sayqallashtirishga yordam beradi. Kitob o'qish jarayonida inson faqat ma'lumot olmaydi, balki matnni tushunish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish kabi fikrlash operatsiyalarini ham bajaradi. Bu esa o'z navbatida nutqning mantiqiy



izchillagini ta'minlaydi. Kitobxon voqealar rivojini kuzatib, personajlar xatti-harakatlariga baho berib, o'z fikrini shakllantiradi va ifodalashga o'rganadi. Kitobning mazmunidan kelib chiqib o'z fantazyasini yaratadi bu esa ongning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bola o'z fantaziyasi orqali yangi olamni yangilikni yaratib tasavvurini boyitadi. Bunda ongni va tasavvurni boyitishda kitob to'g'ri tanlanganligi hamda uning mazmuni muhim ahamiyatga ega. Kitob tanlashda albatta kattalarning o'rni juda muhim. Bu jarayonda birinchi o'rinda ota - onaning o'rni muhimdir. Ota-onalar bolaga namuna bo'lishi kerak. Bolalar kattalarning xatti-harakatlarini ko'rib o'rganadilar. Agar ota-onsa kitob o'qishni sevs, oilada ijtimoiy muhit o'zaro munosabatlar ijobiy bo'lsa, bolalar ham kitobga qiziqish bildiradi. Bola oilaviy sharoiti va muhitida kelib chiqib, kitob o'qishga va tanlashga harakat qiladi. Ota-onsa bolaga to'g'ri tanlov qila olsa, bu bolaning jamiyatdagi o'rnini topishiga, qo'yilgan qadamlarning eng muvafaqiyatlisi bo'lishi mumkin. Chunki kitobning to'g'ri talanganligi bu bolaning ijtimoiylashuviga, jamiyatda ravnaq topishiga yordam beradi. Aytib o'tilganidek kitob tanlashda avvalambor bolaning yoshi, oilaviy muhiti hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda unga mos kitob tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda turli xil mavzudagi kitoblarni topish mushkul emas. Bolaning qiziqishi imkoniyati yoki nutqdagi kamchilklariga, bolaga unining rivojiga nafi tegishiga qarab kitob tanlansa, ko'zlangan natijalar yuzaga chiqishi mumkin. Ayrim bolalarda nutqda kamchilklar kuzatiladi. Masalan, bolalarda ichki nutq ko'proq rivojlangan bo'ladi. Bola buni yuzaga chiqarishda qiynaladi yoki so'zlarni tallafuzida muammoga duch kelishi, so'z boyligining kamligi yoki gramatik jihatdan so'zlarni bir biriga bog'lay olmasligi va shunga o'xshash muammolarni yechishga yordam beradigan turli sohadagi kitoblar audiokitoblar yoki turli xil individual shug'ullanadigan kitoblar, interaktiv dasturlar ishlab chiqilgan.

Kitoblardagi ma'lumotlar (she'rlar, tez aytishlar, maqollar masallar) orqali nutqni amaliy jihatdan rivojlantirish, fikirlashni hamda so'zlearning manolarini chaqishni o'rganishlari mumkin. Nutqni ivojlantirishning turli xil metodlar ham ko'paymoqda. Bu metodlardan samarali foydalanib unga Bolani qiziqtira olsa uning nutqidagi kamchiliklarni tuzatish uchun muhim bir vositaga aylanadi. Yozuvchilar va shoirlarning jumlalarni tuzish usullari, so'zlardan unumli foydalanishi kitobxonga namuna bo'ladi. Natijada, kitobxon o'z nutqida ham to'g'ri jumla tuzish, fikrni mantiqan izchil ifodalash ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Kitoblar nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki nutq madaniyatini ham o'stiradi. Yaxshi asarlar orqali inson muloqot odobini, so'zlashish madaniyatini, nutq etikasini o'zlashtiradi. Kitob o'qiydigan insonlar ko'pincha suhbatdoshini tinglash, o'z fikrini madaniy tarzda ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladi.



Xulosa qilib aytganda, kitob mutolaasi nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalardan biridir. Muntazam kitob o'qish orqali nutq boyiydi, sayqallashadi, ifodali bo'ladi. Kitob o'qish madaniyatini oilada, ta'lim muassasalarida shakllantirish nafaqat nutq madaniyatini, balki umuman jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois, har bir inson, ayniqsa yosh avlod vakillarida kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – M.: Pedagogika, 1999. – 352 b.
2. Luriya A.R. Nutq va tafakkur. – M.: MGU nashriyoti, 2005. – 220 b.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Turon-Iqbol", 2019. – 256 b.
4. G'oziyev E. Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2008. – 352 b.
5. Kadirova F.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2018. – 154 b.
6. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Nosir, 2009. – 352 b.
7. Yusupova Sh. Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini o'stirish. – T.: "Fan va texnologiya", 2016. – 260 b.
8. Mirjalilova S. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish metodikasi. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 182 b.
9. Hasanboyeva O. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – T.: "Ilm Ziyo", 2006. – 288 b.
10. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – T.: "Yangiyo'l Poligraf Servis", 2020. – 216 b.